TARBIYA VA TA’LIM INTEGRATSIYASINING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Almamatova Mavluda Rustam qizi, “Sayhun ilmiy axborotnomasi” jurnali tahririyat muharriri.
e-mail: mavluda0993@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola ta’lim va tarbiya integratsiyasining innovatsion yondashuvlarini tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada ta’lim va tarbiya tizimlarining o‘zaro bog‘liqligini mustahkamlash va ulardagi integratsiyani kuchaytirishning ahamiyati yoritiladi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar, jumladan, o‘yin asoslangan ta’lim, raqamli texnologiyalarni qo‘llash, interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuvlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishi va o‘quvchilarning individual rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Maqolada, shuningdek, ta’lim va tarbiya integratsiyasining samarali amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan innovatsion yondashuvlar va ularning ta’lim tizimida qo‘llanilishi bo‘yicha ilmiy tahlillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya va ta’lim integratsiyasi, innovatsion pedagogik yondashuvlar, o‘yin asoslangan ta’limi, raqamli ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsiyalar, individual yondashuv;

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ИНТЕГРАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ И ПРЕПОДАВАНИЯ

Абстрактный. Целью данной статьи является анализ инновационных подходов к интеграции образования и воспитания. В статье подчеркивается важность усиления взаимосвязи систем образования и воспитания, усиления их интеграции. Инновационные педагогические подходы, включающие игровое обучение, использование цифровых технологий, интерактивных методов, компетентностный подход, способствуют повышению эффективности образовательного процесса и обеспечивают индивидуальное развитие обучающихся. В статье также представлен научный анализ инновационных подходов, необходимых для эффективной реализации интеграции образования и воспитания, и их применение в системе образования.

Ключевые слова: интеграция образования и воспитания, инновационные педагогические подходы, игровое обучение, цифровые образовательные технологии, интерактивные методы, компетентностный подход, инновации, индивидуальный подход;

INNOVATIVE APPROACHES TO EDUCATION AND TEACHING INTEGRATION

Abstract. This article is aimed at analyzing innovative approaches to the integration of education and upbringing. The article highlights the importance of strengthening the interconnection of education and upbringing systems and enhancing their integration. Innovative pedagogical approaches, including game-based learning, the use of digital technologies, interactive methods and

competency-based approaches, serve to increase the effectiveness of the educational process and ensure the individual development of students. The article also presents innovative approaches necessary for the effective implementation of education and upbringing integration and scientific analyses of their application in the education system.

Keywords: integration of education and training, innovative pedagogical approaches, game-based education, digital educational technologies, interactive methods, competency-based approach, innovations, individual approach;

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimi faqat bilim berish vositasi sifatida qolmasdan, insonning ma’naviy, axloqiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan murakkab jarayonga aylanmoqda. Ta’limning bugungi o‘rni va ahamiyati ta’lim va tarbiya jarayonlarini bir butun tizim sifatida qarashni taqozo etadi. Ta’limning maqsadi faqat ilm olishni emas, balki shaxsni jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga, o‘z-o‘zini rivojlantirishga va boshqalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga tayyorlashdir.

Bugungi kunda ta’lim va tarbiya jarayonlari orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tarbiya – bu insonning ma’naviy, axloqiy va jismoniy jihatdan sog‘lom shakllanishi jarayoni bo‘lib, ta’lim esa bilimlar va ko‘nikmalarni egallashning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Integratsiya, o‘z navbatida, ta’lim va tarbiya tizimlarining bir butun tizim sifatida ishlashini ta’minlaydi va ularning o‘zaro bog‘lanishini kuchaytiradi. Ta’limning integratsiya jarayoni faqat nazariy emas, balki amaliy yondoshuvni ham talab etadi.

Zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimlari globalizatsiya, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida yangilanmoqda. O‘quvchilar, talabalarga yuqori sifatli bilimlar berish bilan birga, ularning shaxsiy rivojlanishiga ham e’tibor qaratilmoqda. Shu bois, ta’lim va tarbiya integratsiyasi masalasi bugungi kunning eng dolzarb va muhim pedagogik masalalaridan biri hisoblanadi. O‘zgaruvchan ijtimoiy muhit, texnologik inqilob va ta’lim tizimining globalizatsiya jarayonlaridagi roli ta’lim va tarbiya integratsiyasini amalga oshirishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni talab etadi [1].

Ta’limning innovatsion yondashuvlari – bu yangi metodlar, texnologiyalar, o‘qitish va o‘rganishning zamonaviy usullarini o‘z ichiga olgan pedagogik yangiliklar bo‘lib, ular ta’lim va tarbiya jarayonini yanada samarali, shaxsiylashtirilgan va zamonaviy talablar asosida rivojlantirishga qaratilgan. Innovatsion yondashuvlar ta’lim va tarbiya jarayonlarida o‘quvchilar va o‘qituvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi, o‘rganishning samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yuqoridagi omillar ta’lim tizimining o‘zgarishiga, yangi metodologiyalarning joriy etilishiga, ta’lim va tarbiya tizimlarining integratsiyasiga asoslangan innovatsion pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishga turtki bo‘lmoqda. Ushbu maqolada ta’lim va tarbiya integratsiyasining innovatsion yondashuvlari tahlil qilinib, ularning o‘quvchilarning individual rivojlanishi, jamiyatdagi faoliyatini yaxshilash va bilim olishdagi samaradorligini oshirishdagi o‘rni ko‘rsatib o‘tiladi. Ta’lim va tarbiya tizimidagi innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish, yangi texnologiyalarni qo‘llash va o‘quvchilarning ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish zarur.

Ushbu maqolada o‘quvchilarning bilim olish jarayonini sifatli va samarali tashkil etishda ta’lim va tarbiya integratsiyasining o‘rni, uning innovatsion yondashuvlari, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq jihatlari keltiriladi. Tadqiqotda integratsion yondashuvlar ta’lim va tarbiya

tizimlarining samarasini oshirishda qanday rol o‘ynashi ko‘rsatilgan va bu jarayonlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar taqdim etilgan.

Tarbiya va ta’lim jarayonining integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu boradagi nazariy hamda amaliy izlanishlar ko‘plab pedagog-olimlar tomonidan olib borilgan. Tadqiqot davomida ushbu mavzuga oid turli milliy va xorijiy manbalar o‘rganildi, tahlil qilindi va ularning ilmiy-metodologik asoslari umumlashtirildi.

O‘zbekistonlik pedagog olimlar tomonidan ta’lim va tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligi, ularning integratsion asosda amalga oshirilishi zarurati ko‘plab ilmiy ishlar markazida turadi. Jumladan: **Yoqubjon Boqoyev** o‘zining “Pedagogik texnologiyalar”(2015) nomli asarida zamonaviy ta’lim texnologiyalari orqali tarbiya jarayonini chuqurlashtirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Muallif ta’limning maqsadga yo‘naltirilganligi va tarbiyaning shaxsga yo‘naltirilganligi o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashga urg‘u beradi [2].

Ravshanbek Islomov tomonidan yozilgan “Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalar” (2020) nomli asarda [3] innovatsion metodlarning o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o‘rni, shuningdek, bu texnologiyalarning tarbiya bilan uyg‘unlashuvi muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. **B. Sagdullayev**ning asarlarida milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy yondashuvlarni zamonaviy ta’limga integratsiyalash bo‘yicha qator metodik tavsiyalar keltirilgan. U pedagogik integratsiyani milliy g‘oyalar bilan uyg‘unlashtirish masalasini dolzarb deb biladi. **Abdulla Avloniy**ning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari [4] tarixiy-nazariy manba sifatida hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Unda ta’lim va tarbiyaning ajralmasligi, axloqiy-me’yoriy qadriyatlarning yoshlarga singdirilishi haqida chuqur fikr yuritiladi.

Xalqaro miqyosda tarbiya va ta’lim integratsiyasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, bu boradagi ilg‘or tajribalar mazkur mavzuni boyitishda muhim manba hisoblanadi.

- John Dewey (AQSH) – uning “Demokratiya va ta’lim” (1916) [5] nomli asarida ta’lim va tarbiyani ajralmas jarayon sifatida ko‘rish g‘oyasi ilgari surilgan. Deweyga ko‘ra, o‘quvchi hayotga tayyorlanmasligi kerak emas, balki hayotning o‘zida yashab o‘rganishi kerak. Bu yondashuv integratsion pedagogik modelga asos bo‘lgan.
- Lev Vygotsky (Rossiya) – “Madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi” orqali ta’limda ijtimoiy kontekstning, ya’ni tarbiya elementlarining ahamiyatini asoslab bergan. Uning fikricha, bola rivojlanishida nutq va ijtimoiy muloqot asosiy omillardir.
- Howard Gardner (AQSH) – “Ko‘p intellekt nazariyasi” asoschisi sifatida har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlari va tafakkur usullarini hisobga olgan holda tarbiya va ta’lim usullarini moslashtirish tarafdoridir. Bu esa integratsiyalashgan ta’lim modeliga muvofiq keladi [6].
- Ken Robinson (Buyuk Britaniya) – kreativlik, erkin fikrlash va shaxsiy rivojlanishning ta’limda markaziy o‘rinda bo‘lishini talab qiladi. Uning “The Element” (2009) asari orqali pedagogik muhitda tarbiya va motivatsiyaning roli yoritiladi.
- OECD (2020) tomonidan tayyorlangan “Future of Education and Skills 2030” hisobotida esa innovatsion ta’limning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida “holistik yondashuv” (ya’ni intellektual, axloqiy va hissiy tarbiyaning uyg‘unlashuvi) ilgari surilgan.

Tahlil qilingan adabiyotlar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, ta’lim va tarbiya integratsiyasi – bu nafaqat o‘quv dasturlari va pedagogik metodlar uyg‘unligi, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan murakkab jarayondir. Milliy hamda xalqaro adabiyotlar ushbu integratsiyaning nazariy asoslari va amaliy

yo‘llarini yoritishda muhim o‘rin tutadi. Integratsion yondashuvlar ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar, STEAM, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika bilan uyg‘unlashganda eng samarali natijalarni beradi.

A) Tizimli yondashuv – pedagogik jarayonlarni yagona tizim sifatida ko‘rib chiqish, bunda ta’lim va tarbiya elementlari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda tahlil qilinadi;

B) Integrativ yondashuv – tarbiya va ta’limni birgalikda amalga oshirishga yo‘naltirilgan metodlar majmuasini ishlab chiqish, ularning o‘zaro uyg‘unligini aniqlash;

D) Holistik (butunlik) yondashuv – o‘quvchi shaxsini barcha jihatlari bilan (axloqiy, ijtimoiy, intellektual, estetik) shakllantirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya usullarini qamrab olish;

E) Innovatsion-pedagogik yondashuv – yangi texnologiyalar, STEAM, raqamli ta’lim, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida zamonaviy metodikalarni sinovdan o‘tkazish.

1. O‘yin asoslangan ta’lim. O‘yin asoslangan ta’lim (OAT) – bu ta’lim jarayonida o‘yin elementlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan yondashuvdir. OAT o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

2. Texnologiya integratsiyasi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘quvchilarning axborot savodxonligini oshiradi, ta’limning sifatini yaxshilaydi va ta’limni individualizatsiya qilish imkoniyatini yaratadi. Masalan, onlayn platformalar orqali masofaviy ta’limning keng tarqalishi ta’lim va tarbiya jarayonlarini yanada samarali qiladi.

3. Interfaol metodlar. Interfaol metodlar – bu o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan ta’lim usullaridir. Ular o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi va ta’lim jarayonini qiziqarli qiladi. Masalan, guruhli muhokamalar, rolli o‘yinlar va loyihalar asosida o‘qitish interfaol metodlarga misoldir.

4. Kompetensiyaviy yondashuv. Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nafaqat bilim, balki ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvdir. Bu yondashuv o‘quvchilarning amaliy faoliyatga tayyorligini oshiradi va ularning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

5. Andragogik yondashuv. Andragogik yondashuv – bu kattalar ta’limiga qaratilgan yondashuvdir. Ushbu yondashuvda o‘quvchilarning tajribasi, ehtiyojlari va motivatsiyasi inobatga olinadi. Kattalar ta’limida o‘quvchilarning faol ishtiroki, mustaqil ishlashi va o‘z-o‘zini rivojlantirishi ta’minlanadi.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot doirasida milliy va xalqaro miqyosdagi ilmiy-nazariy manbalar, amaliy tajribalar, shuningdek ilg‘or pedagogik konsepsiyalar o‘rganildi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki: **Abdulla Avloniy**ning ta’lim-tarbiya borasidagi qarashlarida tarbiya jamiyat hayotidagi eng muhim omil sifatida e’tirof etiladi: *“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.”* Bu fikr bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lib, integratsion yondashuvlarning nazariy asosi sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilgan kuzatuvlar va so‘rovnomalar asosida quyidagi holatlar aniqlandi:

- Ko‘plab ta’lim muassasalarida tarbiya ishlari alohida yo‘nalishda amalga oshiriladi, bu esa uning ta’lim jarayoniga tabiiy integratsiyalashuviga to‘sqinlik qiladi.
- O‘quv dasturlari va o‘quv-metodik majmualarda tarbiyaviy komponentlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularni dars jarayoniga singdirish mexanizmlari hali yetarlicha ishlab chiqilmagan.

- O‘qituvchilarning katta qismi tarbiya bilan bog‘liq faoliyatni faqat tashkiliy-tarbiyaviy ishlar (sinf soati, tadbirlar) bilan bog‘lab kelmoqda, bu esa integratsion yondashuvga ziddir.

Tadqiqotning amaliy bosqichida 3 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabi va 1 ta pedagogik oliygohda quyidagi metodlar asosida tahlil ishlari olib borildi:

T/r.	Ko‘rsatkichlar	Natija (%)
1.	O‘qituvchilarning tarbiya-ta’lim integratsiyasiga tayyorlik darajasi	67%
2.	O‘quvchilarning tarbiyaviy jihatdan faollik ko‘rsatgan holatlari (innovatsion darslarda)	74%
3.	An’anaviy darslarda tarbiyaviy maqsadlarga erishish samaradorligi	42%
4.	Innovatsion metodlar asosida tarbiya singdirilgan darslarda qiziqish darajasi	81%

Xulosa. Zamonaviy ta’lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, shaxsning axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy kamolotiga ham bevosita ta’sir qilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, tarbiya va ta’limning uzviy integratsiyasi bugungi ta’lim tizimining asosiy zaruratlaridan biriga aylanmoqda. Mazkur tadqiqot davomida tarbiya va ta’lim integratsiyasining nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari, hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali amaliyotga joriy etish yo‘llari chuqur o‘rganildi. Quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Tarbiya va ta’limning integratsiyalashuvi shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uni ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi.

2. Zamonaviy innovatsion yondashuvlar – masalan, STEAM, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – tarbiyaviy maqsadlarni dars jarayoniga tabiiy tarzda singdirishga yordam beradi.

3. Pedagogik jarayonning integratsiyalashuvi o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-ona o‘rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishini taqozo etadi.

4. Fanlararo integratsiya orqali tarbiya umumta’lim fanlarining ichki mazmuni bilan uyg‘unlashtirilganda, o‘quvchilar bilimni nafaqat o‘zlashtiradi, balki hayotda qo‘llashga intiladi.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, № ZRU – 637.
2. Baqoyev Y. “Pedagogik texnologiyalar”. – Toshkent, 2015.
3. Islomov R. “Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalar”. – Toshkent, 2020.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma’naviyat, 1992.
5. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
6. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983.
7. Sagdullayev B. Tarbiyaning falsafiy asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015.
8. Turaqulov M., Jo‘raev S. Innovatsion pedagogika. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
9. Mavlonova R. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston pedagogik nashriyoti, 2018.